

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining asosiy vazifa va funksiyalari

1. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlarni tayyorlash yagona tizimini tashkil qilish;

yoshlarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi va xizmat burchiga sodiqlik ruhida tarbiyalash hamda har taraflama rivojlangan shaxsni shakllantirish, ularda respublikaning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy meroslari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish asosida yuksak odob-axloq fazilatlarini, chuqur kasbiy bilimlarni va mustaqil tafakkurni rivojlantirish;

yong'in-qutqaruv bo'linmalarining aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minlay olishga qodir, yuqori kasbiy maxorat va malakaga ega xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

ta'lim jarayoniga joriy etish sohasida ilg'or xorijiy tajriba, jumladan, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari va masofaviy ta'lim tizimini samarali qo'llash, zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan o'quv adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda nashr etish;

ta'lim jarayonini fan va amaliyot bilan integratsiyalash bo'yicha fundamental, amaliy va innovasion tadqiqotlar olib borish, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

o'ta muhim davlat ahamiyatiga ega yoki yong'in va portlash xavfi yuqori bo'lgan ob'ektlar, ijtimoiy sanoat ob'ektlari, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbar va muxandis-texnik xodimlarini yong'in xavfsizligi asoslari bo'yicha shartnoma asosida o'qitish.

2. Ta'lim va mutaxassislik yo'nalishlari fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarni ishlab chiqish;

davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida oliy ma'lumotli ofiser kadrlarni tayyorlashning yagona tizimini tashkil qilish;

tizimli asosda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlovchi boshqaruv organlari uchun rahbar kadrlarni tayyorlash hamda ushbu soha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

yosh o'qituvchilar va ilmiy xodimlar orasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;

yoshlarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyasi va xizmat burchiga sodiqlik ruhida tarbiyalash masalalari bo'yicha O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish;

huquqni muhofaza qilish organlarining boy amaliy tajribaga va ish stajiga ega xodimlari, san'at va fan namoyondalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish;

milliy va xorijiy ixtisoslashtirilgan ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

Shaxrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik liseyining faoliyatiga tashkiliy, o‘quv-metodik va ilmiy rahbarlik qilish hamda boshqa ta’lim muassasalariga o‘quvchi va talabalarning favqulodda vaziyatlarda va yong‘inlarda xarakatlanishi masalalari bo‘yicha tashkiliy-metodik yordam ko‘rsatish;

yetakchi ixtisoslashtirilgan xorijiy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini o‘rganish va tahlil qilish, faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlik memorandumlarini tuzish;

ixtisoslashtirilgan xorijiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida pedagog xodimlar va tadqiqotchilarning stajirovka o‘tashi va malaka oshirishini tashkil etish;

zamon talablari va standartlariga javob beradigan darslik, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish;

o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish, monografiya va boshqa ilmiy ishlar, ilmiy-amaliy jurnallar va boshqa davriy nashrlarni tayyorlashda yetakchi turdosh ta’lim muassasalari mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorlik va tajriba almashishni tashkillashtirish;

yong‘in xavfsizligini ta’minlash, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy va amaliy konferensiyalar va seminarlarni o‘tkazish;

Fuqaro muhofazasi instituti tomonidan amalga oshiriladigan o‘quv-uslubiy faoliyatni muvofiqlashtirish va amaliy yordam ko‘rsatish;

professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish choralari ishlab chiqish va malaka oshirishlarini tashkil qilish;

yetakchi xorijiy turdosh ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tajribasini o‘rganish va tahlil qilish;

xorijiy mutaxassislarni ilmiy va pedagogik faoliyatga, master-klasslar va seminarlarni o‘tkazishga jalb qilish;

professor-o‘qituvchilar tarkibini tizimli ravishda xorijiy ta’lim muassasalarida malaka oshirishini, tajriba almashishini tashkil etish.